



## **XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI**

2021 - yil 30 - oktabr

VI-45-78-7-93-K/21

Bulung'ur tuman hokimligi

### **Tumanda 2021-2022-yil kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish maqsadida oziq-ovqat zaxirasi uchun mablag' ajratish to'g'risida**

Tumanda 2021-2022-yil kuz-qish mavsumida ichki iste'mol bozorlarini asosiy turdagi oziq-ovqatlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xususan kartoshka bilan to'ldirish hisobiga narxlarni barqaror saqlanishini ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining zaxirasini tayyorlash maqsadida tuman mahalliy budjetining 3-chorak daromadlar prognoz rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan tumanda oziq-ovqat mahsulotlari zaxirasini yaratish uchun mablag' ajratish hamda O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining XLV sessiyasi

### **QAROR QILADI:**

1. Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2021-yil 23-oktabrdagi VI-45-77-7-0-K/21-sonli "Viloyat mahalliy budjetining qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi qarorining 2-ilovasi bo'yicha ko'rsatilgan mablag'lar tuman mahalliy budjetiga o'tkazib berilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (D.Xabibullayev)ning 2021-2022-yil kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha tuman mahalliy budjetining 3-chorak daromadlar prognoz rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan tumanda oziq-ovqat mahsulotlari zaxirasini yaratish to'g'risidagi bildirishnomasi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman mahalliy budjetining 3-chorak daromadlar prognoz rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan 2022-yilning iyul oyiga qadar qaytarib berish sharti bilan "Boboyor Qayumov" Xususiy korxonasiga kuz-qish mavsumiga zaxira tayyorlash

maqsadida 200 mln.so‘m mablag‘ ajratish ma’qullansin.

4. Tuman hokimligi Moliya bo‘limi (J.Narziyev)ga tegishli tartibda budjetga o‘zgartirish kiritish, tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (E.Niyazov)ga belgilangan tartibda to‘lovlarni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Nomazov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Xabibullayev) zimmalariga yuklatilsin.

**Kengash raisi**



**B.Baxramov**